


# **Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Boysun tumaniga tashrifining keyingi manzilida “Azia construction” MChJ xorijiy korxonasi tomonidan alyuminiy eshik-romlar, mebellar ishlab chiqarish loyihasi faoliyati bilan tanishdi.**



To'liq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilish orqali amalga oshirilayotgan loyiha qiymati 200 ming dollarni tashkil etadi. Yillik 3,5 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega korxonada 20 ta yangi ish o'rirlari yaratilgan.

Viloyat rahbari korxona faoliyati, ishlab chiqarish jarayonlari hamda tayyor mahsulotlar sifati bilan tanishdi va tadbirkor bilan suhbatlashdi. Loyihani kengaytirish, talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va ish o'rirlari sonini oshirish bo'yicha zarur taklif va tavsiyalar berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)